



INNOVATIVE WORLD  
Ilmiy tadqiqotlar markazi

# INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



 <https://innoworld.net>

 +998335668868



ILMIY JURNAL



ICJ JOURNALS  
MASTER LIST

ISSN

INTERNATIONAL  
STANDARD  
NUMBER  
FOR  
DOCUMENTATION

doi

zenodo

OpenAIRE

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBID

Google Scholar

open access.nl





## INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI

3-JILD, 6-SON  
2026

Jurnal quyidagi xalqaro bazalarda indekslanadi:

Google Scholar  digital object identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

Ilmiy jurnalning rasmiy sayti:

[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'ZBEKISTON-2026

3-JILD, 6-SON | MAY - 2026 |

+99833 5668868 | [www.innoworld.net](http://www.innoworld.net) | @Anvarbek\_PhD

## ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA HARBIY TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY DIDAKTIK IMKONIYATLARI

**Akrambaev Xasan Mamadjanovich**

IIV Malaka oshirish instituti Xizmat-jangovar va jismoniy tayyorgarlik  
sikli katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

**Annotatsiya:** Maqolada kursant (tinglovchi)larda harbiy tayyorgarligini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari, "Vatan", "vatanparvar", "iftixor" va boshqa shu kategoriya so'zlarning mazmuni, harbiy, huquqiy va boshqa fanlar bilan kompleks yondashuv va xizmat qasamyodining tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ichki ishlar vazirligi kursant, tinglovchilar, iftixor, vatan, didaktik, fan, xizmat qasamyodi.

**Аннотация:** В статье представлены дидактические возможности для формирования военной подготовки курсантов (слушателей), содержание слов "родина", "патриот", "гордость" и слов такой категории, комплексный подход к военным, юридическим и другим наукам. Освещается воспитательное значение служебной присяги.

**Ключевые слова:** Министерство внутренних дел, курсанты, слушатели, военная подготовка, гордость, родина, дидактика, наука, служебная присяга.

**Annotation:** The article presents didactic opportunities for the formation of military training of cadets (listeners), the content of the words "motherland", "patriot", "pride" and words of this category, an integrated approach to military, legal and other sciences. The educational value of the service oath is highlighted.

**Keywords:** Ministry of Internal Affairs, cadets, students, military training, pride, motherland, didactics, science, service oath

**Kirish.** Mamlakatimizning yuksalish zamirida ichki ishlar organlari xodimlarida harbiy tayyorgarligini yuqori darajaga ko'tarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bu borada "Vatan", "vatanparvar", "harbiy vatanparvarlik", "iftixor", kabi kategoriya so'zlarning mazmuni va mohiyatini ilmiy-pedagogik jihatdan doimiy ravishda yoritib borish ularda milliy iftixorini shakllantirishda o'z ta'sirini kuchaytiradi.

"Vatan" – ona yurt, tug'ilgan makon ma'nolarini anglatadi. "Vatan" tushunchasi inson yashaydigan joy, muqaddas tuproq, shu yurt tabiati, atrof muhit, qushlar va hayvonot dunyosi, ota bobolaridan qolgan merosi, milliy qadriyatlari



majmuidir<sup>8</sup>. Demak, insonning tug‘ilib o‘sgan yurtidagi butun borliq uning vatanidir.

“Vatanparvar” – g‘amxo‘rlik qiluvchi, o‘z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, Vatan manfaatlarini uchun jonbozlik ko‘rsatuvchi insonlar<sup>9</sup>. Demak vatanparvarlik odamlarning ona yurti, vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalovchi tushuncha.

“Harbiy-vatanparvarlik” – harbiy ta‘limni qamrab olgan va vatanparvarlik tarbiyasiga ega bo‘lgan insonlar tushuniladi<sup>10</sup>. Bu insonning Vatan oldidagi burchini his etishini, uning manfaatlarini himoya qilishda shaxsiy jonbozlik, fidoyilik ko‘rsatishni, kerak bo‘lsa qahramonlikka tayyorligini anglatadi.

“Iftixor” – shon sharaf keltiruvchi, faxrlansa arziydigan ish, kimsa yoki narsa<sup>11</sup>. Qo‘shimcha qilib aytganda inson biror muvaffaqiyatga erishganida undan faxrlanadi va ona Vatanga bo‘lgan mehru-muhabbati savqi tabiiy tuyg‘u sifatida tovlanib iftixori shakllanadi.

**Asosiy qism.** Ichki ishlar vazirligi ta‘lim muassasalarida o‘tkaziladigan ma‘ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarning kirish qismida, qolaversa ma‘naviyat va ma‘rifat darslari, davra suhbatlari, bahs-munozara, badiiy kecha va anjumanlarda “Vatan”, “vatanparvarlik”, milliy madaniyat, millatning o‘tmishi, urf-odat va an‘analari, ajdodlarimiz merosi, obidalarimiz, milliy bayramlar, tarixiy va ma‘naviy bebaho xazinalarimiz, O‘zbekiston tarixi, ichki ishlar vazirligi tarixi, davlat ramzlari va boshqa hikmatlar bo‘yicha chuqurroq ma‘lumotlar berilishi kursant (tinglovchi)larning milliy iftixorini yanada ortib, mustahkamlanib borishiga xizmat qilmoqda.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, ichki ishlar vazirligi ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan huquqiy, harbiy, tarix va boshqa ijtimoiy fanlarda kursant (tinglovchi)larda huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltiradi, yuksak ma‘naviyatni, vatanparvarlikni, el-yurtga, sadoqatni, adolatni, halollikni, o‘zligini unutmashlik, tarixiy qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatlarini shakllantiradi, shuningdek iymon-e‘tiqodini mustahkamlab irodali, jismonan baquvvat, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol xodim etib qaror toptiradi, Aytish mumkinki, milliy iftixorni kursant (tinglovchi)larda shakllantirish, ularda buguni va ertangi kunga ishonchini uyg‘otadi va halol mehnat qilish fazilatlarini singdiradi.

Huquqiy fanlarni o‘qitish jarayonida kursant (tinglovchi)lar ongida huquq va qonunchilik haqida tasavvurlari, his tuyg‘ulari paydo bo‘ladi hamda ular tomonidan huquq haqidagi muhim bilimlarni egallab olishi, normativ-huquqiy

<sup>8</sup> Abduvahob Madvaliev taxriri ostida O‘zbek tilining izog‘li lug‘ati – T., 2020. 1 tom. – B. 444-445.

<sup>9</sup> Atajanova Sh.B. «Oilada o‘smirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ilmiy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari» // dissertatsiya. Tashkent 2001. – B. 17-18.

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash // Uslubiy qo‘llanma. – T., – 2018. B. 5.

<sup>11</sup> Xojiev A., Nurmonov A., Zaynobuddinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., Kuronov R. Xozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati – T., 2001. – B. 79.

hujjatlarni talqin qilishi va to'g'ri foydalana olishi, ularda huquqiy savodxonligi oshiriladi. Huquqni anglash ichki ishlar organlari xodimida mas'uliyatini, qonunga hurmatini oshiradi va unda sadoqatni, adolatni, halollikni hosil qilib iftixorini shakllantiradi.

Harbiy fanlarni o'qitish jarayonida kursant (tinglovchi)larda zamonaviy qurol-yaroq va harbiy-texnik va harbiy-san'at bo'yicha bilimlarni berish bilan birga o'z mamlakatidan faxrlanish tuyg'usini, Vatan oldidagi burchini his etishini, uning manfaatlarini himoya qilishda shaxsiy jonbozlik, fidoyilik ko'rsatishini, psixologik sifatlarini takomillashtirish jarayonida, ularda harbiy vatanparvarligi tarbiyalanadi, shu bilan birga men Vatan himoyachisi degan g'urur shakllanadi.

Tarix fanlarini o'qitish jarayonida qadimiy, o'rta va hozirgi zamonlardagi tarixiy haqiqat, tarixiy jarayonlar, voqea-hodisalar o'rgatiladi va kursant (tinglovchi)larda o'zligini unutmazlik, tarixiy qadriyatlarini asrab-avaylash, hurmat qilish, buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish hamda ularning hayotida namuna qilib olish fazilatlarini shakllanadi.

Ijtimoiy fanlarni o'rganish kursant (tinglovchi)larni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi, ularda kasbiy psixologiyasini rivojlantiradi. Vatan, axloq, odob, go'zallik, jamiyat, inson tafakkuri haqida tushunchalar beriladi va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy, islohotlar chuqur o'rganiladi, shuningdek hayotda bor butun borliqni bilish bilan milliy iftixor tuyg'ulari shakllantiriladi.

Shunday qilib, kursant (tinglovchi)larda milliy iftixorini shakllantirishda harbiy, huquqiy, tarix va ijtimoiy fanlar bir-biriga bog'liq ekanligi ma'lum bo'lib, harbiy bilimlarni berishda ulardan kompleks foydalanildi. Masalan: O'q otish fanidan o'q otar qurollarni jangovar xususiyati, qismlari, o'q otish shartlari, xavfsizlik choralari o'rganilganidan so'ng o'q otish amaliy mashg'ulotlarini amalga oshirish uchun, huquqiy fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi 247, 248, 249 va O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 220, 221, 222 o'q otar qurollarga tegishli bo'lgan moddalarini o'rgatiladi, tarix fanlari bo'yicha o'q otar qurollarni kelib chiqishi, ajdodlarimiz davridagi va zamonaviy qurollarning farqlanishi bo'yicha tushunchalari beriladi, ijtimoiy fanlar bo'yicha kursant (tinglovchi)larni o'q otishga tayyorlashda psixologik jihatdan iymon-e'tiqodli, irodali, jismonan baquvvat etib tarbiyalaydi. O'q otish fanidan tashqari maxsus taktika va boshqa harbiy fanlardan yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan fanlari bilan kompleks yondashuv bo'yicha ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Kursant (tinglovchi)larda milliy iftixor ruhidagi tarbiyasini shakllantirishning yana bir didaktik imkoniyati Davlat ramzlarini mazmun mohiyatini chuqur bilishi, uning g'ururi, faxri va iftixori.



O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlanadigan o‘z davlat ramzlari - bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega<sup>12</sup>. Davlat ramzlari mamlakatimizning mustaqilligining ifodasi bo‘lgan muqaddas timsoli bo‘lib, xalqimizning shon-sharafi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o‘zida mujassam etib, shu yurtda yashovchi har bir fuqaroga g‘urur, faxr va iftixor bag‘ishlaydi.

Ichki ishlar vazirligi harbiy qismlari hamda ta‘lim muassasalarida bitiruv va boshqa tantanali tadbirlarda O‘zbekiston Davlat ramzlari bilan olib kirilgan bayrog‘i, jo‘sh urgan Davlat madhiyasi, harbiy xizmatchilarda va ichki ishlar organlari xodimlarida g‘urur va iftixorni shakllantiradi.

Yana kursant (tinglovchi)larni milliy iftixor ruhida tarbiyasini shakllantirishning didaktik imkoniyatlaridan biri “Xizmat qasamyodi”.

Qasamyod – yigit, qizlarning oriyati, g‘ururi. Unga faqatgina mard, jasur insonlarga sodiq qoladilar. Qasamyod negizida yurt tinchligini saqlash, osoyishtaligini asrash, vatanparvarlik, fidoyilik, yurtga, xalqqa bo‘lgan chinakam mehr yotadi. Shu bois ham, qasamyod yuksak mas‘uliyat yukini talab etadi. O‘z qasamyodiga sodiq qolish er kishining muqaddas burchidir. O‘z qasamyodini buzish Vatanga xiyonat va sotqinlik deb ta‘riflanadi.

Ichki ishlar organlari xizmat qasamyodining tarbiyaviy ahamiyati hodimlarda quyidagilarni shakllantiradi:

fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish;  
o‘z Vataniga, xalqiga, elu-yurtga sadoqat bilan xizmat qilish;  
so‘nggi nafasi qolguncha o‘z Vataniga sadoqatli farzandi bo‘lib qolish;  
har qanday mashaqqatli va qiyinchiliklarini sabot bilan yengish;  
mamlakatimizning nurli istiqboli va mustaqilligimizning munosib himoyachisi bo‘lishi;

zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni vijdonan, sidqidildan bajarish.

Yuqoridagilardan tashqari kursant (tinglovchi)larni milliy iftixor ruhidagi tarbiyani shakllantirishda teatr san‘ati, yuksak ma‘naviyat xazinasini bo‘lgan jahon va milliy adabiyotlar, muzeylar, ziyoratgohlar va shunga o‘xshash boshqa didaktik imkoniyatlar mavjud.

**Xulosa qilib aytganda**, Xalqimizning o‘zligini anglashi, shonli tariximiz, boy o‘tmishimiz, butun dunyo bo‘ylab dong‘i ketgan buyuk allomalarimiz, o‘chmas tarixiy voqeliklar haqida namoyish etilgan hujjatli va badiiy filmlar inson ongi va qalbiga muhrlanib qoladi, u yoshlarda ijodiy tafakkurini rivojlantirishga bevosita mehnat qiladi va ongning o‘sishi bilan bog‘lanadi, inson ruhiyati va ijodiy tafakkur ma‘rifat urug‘lari bilan oziqlanadi.

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // O‘zbekiston. – T., 2019. – 5-modda, B. 5.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // O‘zbekiston. – T., 2019. – 5-modda, B. 5.
2. Ro‘zieva D.I. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish oid metodik tavsiyalar – T., 2006. – B. 3.
3. Ro‘zieva D.I. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari // p.f.d. dissertatsiya. – T., 2007. – B. 469.
4. Ibroximov A., Sultanov X., Jo‘raev N. “Vatan tuyg‘usi”. – T.: – 1996. – B. 288-289.
5. Abduvahob Madvaliev tahriri ostida O‘zbek tilining izohli lug‘ati – T., 2020. 1 tom. – B. 444-445.
6. Atajanova Sh.B. «Oilada o‘smirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ilmiy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari» // dissertatsiya. Tashkent 2001. – B. 17-18.
7. O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash // Uslubiy qo‘llanma. – T., – 2018. B. 5.